HAYOT XAVFSIZLIGI - TUPROQSHUNOSLIK SOHASIDA USTUVOR MASALA



Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi, ekologiya va yer resurslaridan samarali foydalanishda tuproqshunoslik sohasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Tuproq tarkibini o‘rganish, uning unumdorligini aniqlash va tahlil qilish jarayonlari turli laboratoriya ishlari, texnik uskunalar va kimyoviy moddalardan foydalanish bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli quyida keltirilgan ma’lumotlar, mazkur sohada mehnat qilayotgan xodimlar uchun hayot xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya qilishda juda muhim hisoblanadi.



Tuproq kesmalarini olishda xavfsizlik choralari: Tuproqshunos olim va mutaxassislar ko‘pincha dala sharoitida tuproq kesmalarini olish ishlarini amalga oshiradi. Bu jarayonda yer qazish asboblari, kesuvchi jihozlar va maxsus burg‘ulash uskunalaridan foydalaniladi. Mutaxassislar albatta maxsus kiyim, qo‘lqop, rezina etik va himoya ko‘zoynaklaridan foydalanishi lozim. Nam va sirpanchiq yerlarda ehtiyotkorlik bilan harakatlanish, chuqur kesmalar atrofini mustahkamlash ham xavfsizlikning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Tuproq kesmalari olingach, chuqurlarni qayta ko‘mib tekislab qo‘yish xavfsizlik nuqtai nazaridan juda muhim hisoblanadi. Ko‘milmay qoldirilgan chuqurlar odamlar, qishloq xo‘jaligi texnikasi hamda chorva mollari uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Ayniqsa, dalada traktor harakatlanganda chuqurlar texnikaning nosozlanishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, chuqurlarni ko‘mib tekislash ekinlarga agrotexnik ishlov berish jarayonlarini yengillashtiradi. Shu sababli tuproq namunalari olinganidan keyin chuqurni qaytadan ko‘mish, yerni tekislash va dalani avvalgi holatiga keltirish tavsiya etiladi. Bu yerdan samarali va xavfsiz foydalanishni ta’minlaydi.

Tuproq namunalarini maydalash va elash: Laboratoriya tahlili uchun olingan tuproq namunalari maxsus maydalash stanoklarida maydalaniladi. Bu jarayonda stanokning aylanuvchi qismlari inson uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun stanok ishlayotgan vaqtda qo‘lni yaqinlashtirmaslik, maxsus niqob va quloqni himoya qiluvchi vositalardan foydalanish zarur.

Tuproqni elash jarayonida mayda

ISSN 2181-0826 2/2026 y.

chang zarrachalari havoga ko‘tariladi. Bu esa nafas yo‘llariga zarar yetkazishi mumkin. Shu bois respirator va shamollatish tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.



Laboratoriyada ishlash madaniyati: Tuproq tahlillari olib boriladigan laboratoriyalarda intizom va tartib birinchi o‘rinda turadi. Namunalar laboratoriyaga olib kirilayotganda ular maxsus idishlarda, belgilar qo‘yilgan holda saqlanishi kerak. Har bir namuna raqamlanishi va aralashib ketmasligi ta’minlanishi zarur.

Laboratoriya ichida yugurish, telefondan foydalanish, musiqa eshitish, asboblarni tartibsiz joylashtirish yoki ish joyini iflos qoldirish xavfli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.



Shisha priborlar bilan ishlashda ehtiyotkorlik choralari: Kimyoviy tahlillarda turli shisha kolbalar, probirkalar va o‘lchov asboblaridan foydalaniladi. Shisha priborlarni qattiq urish yoki yuqori bosimda ishlatish ularning sinishiga sabab bo‘ladi. Singan shisha jiddiy jarohat yetkazishi mumkin.

Shuning uchun shisha jihozlarni ishlatishdan oldin ularda yoriq mavjud emasligi tekshirilishi, siniq idishlar maxsus chiqindi qutisiga tashlanishi lozim.



Qizdirish pechlari va yuqori harorat manbalari: Tuproq tarkibini aniqlashda ayrim namunalar maxsus pechlarda yuqori haroratda qizdiriladi. Bunday uskunalar bilan ishlashda issiqlikka chidamli qo‘lqoplardan foydalanish shart. Pech yonida yonuvchan materiallarni saqlash mu mkin emas.

Qizdirish jarayoni tugagandan keyin ham pech ma’lum vaqt yuqori haroratni saqlab turadi. Shuning uchun uni darhol qo‘l bilan ushlash yoki yaqinlashish xavfli hisoblanadi.



Kimyoviy reaktivlardan xavfsiz foydalanish: Tuproq tahlillarida kislota, ishqor va boshqa kimyoviy reaktivlar keng qo‘llaniladi. Bu moddalar inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli reaktivlar bilan ishlaganda maxsus qo‘lqop, himoya ko‘zoynagi va

xalat kiyish talab etiladi.

Kimyoviy moddalar alohida shkaflarda, xavfsizlik standartlariga muvofiq saqlanishi kerak. Har bir idishda moddaning nomi, xavf darajasi va foydalanish qoidalari yozilgan yorliq bo‘lishi shart. Kislota va ishqorlarni aralashtirishda ehtiyotkorlik talab qilinadi, aks holda kuchli kimyoviy jarayon (reaksiya) yuzaga kelishi mumkin.



Elektr energiyasidan to‘g‘ri foydalanish: Laboratoriyalarda ko‘plab elektr uskunalari ishlatiladi. Simlarning nosozligi, rezetkalarning ortiqcha yuklanishi yoki nam muhitda elektr jihozlaridan foydalanish inson hayoti uchun jiddiy xavf tug‘diradi.

Ayniqsa, bitta rezetkaga ikki yoki undan ortiq quvvatli stanokni ulash elektr tarmog‘ida qizish, qisqa tutashuv va yong‘in kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har bir uskuna alohida elektr manbaiga ulanishi va elektr xavfsizligi qoidalariga qat’iy amal qilinishi lozim.

Mobil tuproq laboratoriyalarining ahamiyati: So‘nggi yillarda tuproq tahlillari uchun mobil laboratoriyalardan foydalanish kengaymoqda. Bu laboratoriyalar dala sharoitida tezkor tahlil o‘tkazish imkonini beradi. Ularning ichida turli o‘lchov asboblari, elektron priborlar, kimyoviy reaktivlar va kompyuter jihozlari joylashgan bo‘ladi.

Mobil laboratoriyada asbob-uskunalarni mustahkam joylashtirish, transportni yurish vaqtida silkinishidan himoya qilish va har bir priborni belgilangan joyda saqlash muhimdir. Kimyoviy moddalar esa maxsus germetik idishlarda saqlanishi shart.

Xulosa qilib aytganda xavfsizlik - samarali mehnat garovidir. Hayot xavfsizligi qoidalariga rioya qilish nafaqat inson salomatligini muhofaza qiladi, balki ish samaradorligini ham oshiradi. Tuproqshunoslik va agrokimyo sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis xavfsizlik madaniyatini yaxshi bilishi va amalda qo‘llashni ham bilishi zarur. Zero, xavfsiz mehnat muhiti - sifatli ilmiy tadqiqot va barqaror taraqqiyotning muhim kafolatidir.

Akbar XUDOYQULOV

ISSN 2181-0826 2/2026 y.